



**Iqlim o'zgarishi sharoitida biologik xilma-xillikni muhofaza
qilishning milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlari**

Xamidullayev Boboxon Orifjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Tabiiy resurslar huquqi” yo'nalishi

magistratura bosqich talabasi

boboxontdyu@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda iqlim o'zgarishining biologik xilma-xillikka ta'siri va ushbu jarayonni boshqarishda milliy hamda xalqaro huquqiy mexanizmlarning roli yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilik asoslari va BMT, Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya kabi xalqaro huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mavjud muammolar, qonunchilikdagi bo'shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillik, huquqiy mexanizmlar, ekologik xavfsizlik, xalqaro huquq, barqaror rivojlanish

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу влияния изменения климата на биологическое разнообразие, а также правовым механизмам его охраны как на национальном, так и на международном уровнях. Особое внимание уделено законодательной базе Республики Узбекистан и международным документам, таким как Конвенция о биологическом разнообразии и документы ООН.



Ключевые слова: изменение климата, биологическое разнообразие, правовые механизмы, экологическая безопасность, международное право, устойчивое развитие

Abstract: This research explores the impact of climate change on biodiversity and examines the legal mechanisms for its protection at both national and international levels. The study focuses on Uzbekistan's environmental legislation and international legal instruments such as the UN Framework and the Convention on Biological Diversity. Key challenges and legislative gaps are identified, and practical recommendations are proposed to address them.

Keywords: climate change, biodiversity, legal mechanisms, environmental protection, international law, sustainable development

Iqlim o'zgarishi natijasida ko'plab turlar yo'qolish xavfi ostida qolmoqda. Bu esa ekotizimlarning barqarorligiga va insoniyatning farovonligiga tahdid solmoqda. Biologik xilma-xillikni saqlash iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Chunki turli xil ekotizimlar karbonni yutish va saqlashda katta ahamiyatga ega. Misol uchun o'rmonlar. Daraxtlar fotosintez jarayonida atmosferadan karbon dioksid (CO₂) yutadi va uni biomassa (yaproqlar, tanalar, ildizlar) shaklida saqlaydi. O'rmonlar har yili taxminan 15.6 milliard tonna karbon dioksidni yutadi, bu esa global isishni sekinlashtiradi¹. Bundan tashqari o'rmonlar tuproqning unumdorligini oshiradi va suv resurslarini boshqarishda yordam beradi va ildizlari tuproq eroziyani kamaytiradi. Mazkur jarayon qurg'oqchilik va suv toshqinlari kabi iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytiradi. Mangrovlar va marjon riflari qirg'oq hududlarini to'fon va suv toshqinlaridan himoya qiladi. Bu tabiiy

¹ Neufeld, D., & Smith, M. (2022, January 22). *Visualizing carbon storage in Earth's ecosystems*. Visual Capitalist. Retrieved October 6, 2024, from <https://www.visualcapitalist.com/sp/visualizing-carbon-storage-in-earths-ecosystems/>



himoya tizimlari iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan tabiiy ofatlarning ta'sirini kamaytiradi. Bu jarayon qirg'oq hududlarida yashovchi jamoalarning xavfsizligini ta'minlaydi va tabiiy ofatlarning iqtisodiy zararini kamaytiradi. 11 yillik tajriba shuni ko'rsatdiki, biologik xilma-xillikning yo'qolib borishi o'simliklarning hayot tarzi (life cycle)ga to'g'ridan to'g'ri salbiy ta'sirini o'tkazadi².

Mazkur keltirib o'tilgan bir qancha muammolarni hal etish bo'yicha mamlakatimiz tizimli tarzda harakatlar olib bormoqda. 2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi qabul qilinib unda bir qancha vazifalar belgilangan. Bunda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni kengaytirish, aniqroq qilib aytganda mamlakat hududining 12 foiziga yetkazish rejalashtirilgan. Bu turdagi hududlarni kengaytirish tabiiy ekotizmlarni saqlashga yordam beradi va bundan tashqari ekoturizm uchun jozibador bo'lib iqtisodiy foyda keltiradi. Muhofaza qilinadigan hududlar ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Orol dengizining qurigan tubida rejaga ko'ra 1,2 million gektar maydonda o'rmonzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. O'zmonzorlar chang va tuzli shamollarni kamaytirishga, buning natijasida mahalliy aholining sog'lig'ini yaxshilashga, qishloq xo'jaligi uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada turli xil o'simlik va hayvonlar uchun yangi yashash joylari yaratilib bu mintaqadagi biologik xilma-xillikni oshiradi³. Bundan tashqari Toshkentda 2024-yil 26-iyun kuni Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida “Global asos – erta harakatni qo'llab-quvvatlash” qo'shma loyihasi doirasida tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda Ekologiya vazirligi, BMTTD, Global ekologik fond (GEF), Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN), nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, olimlar, mutaxassislar ishtirok etdi. Unda O'zbekistonning Kunming-Monreal global bioxilma-xillik dasturiga

² https://www.researchgate.net/profile/Michel-Loreau/publication/225283251_Biodiversity_loss_and_its_impact_on_humanity/links/00b49517fbce42e40f000000/Biodiversity-loss-and-its-impact-on-humanity.pdf

³ 2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-4372839>



muvofiq biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha yangi milliy maqsadlari muhokama qilindi. Bundan O'zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha 2030-yilgacha amalga oshirilishi kerak bo'lgan 23 ta maqsadlar belgilab olinib aholi yashash hududlaridagi sharoitlarni yanada yaxshilash, bioxilma-xillikni asrab qolish va yashash joylarining 30 foizini yashil hududga aylantirish, dorivor o'simliklardan foydalanish bo'yicha yiliga 25 ming gektar madaniy plantatsiyalar tashkil qilish va hayvonot dunyosi bo'yicha Toshkent, Termiz, Farg'ona davlat hayvonot bog'lari qoshida yovvoyi hayvonlarni reabilitatsiya qilish markazlarini tashkil etish kabi ishlar maqsad qilingan⁴. O'zbekistonning biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha yangi milliy maqsadlari 2024-yil oktyabr oyida Kolumbiyada bo'lib o'tadigan Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya ishtirokchilarining 16-konferensiyasida jahon hamjamiyatiga taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Iqlim o'zgarishi sharoitida biologik xilma-xillikni muhofaza qilish uchun xalqaro huquqiy mexanizmlar quyidagilardan iborat:

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya (CBD): 1992 yilda qabul qilingan va bu konvensiya biologik xilma-xillikni saqlash, uning barqaror foydalanishini ta'minlash va resurslardan adolatli foydalanishni, milliy strategiyalar va harakat rejalari ishlab chiqish, biologik xilma-xillikni saqlash uchun moliyaviy va texnik yordam ko'rsatishni maqsad qilgan eng asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. CBD doirasida keyinchalik qabul qilingan **Kartaxena** va **Nagoya Protokoli** ham muhim ahamiyatga ega. Bunday xalqaro huquqiy mexanizmlardan yan biri Xalqaro Savdo Konvensiyasi (CITES) bo'lib u 1973 yilda qabul qilingan. Bu konvensiya yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosini tartibga solish orqali ularni yo'q bo'lib ketishdan himoya qilishni maqsad qiladi. Faoliyati turlarni uchta ilovaga ajratish (I, II, III) va har bir ilovaga kiritilgan turlar uchun turli darajadagi himoya choralarini qo'llashdir.

⁴ O'zbekistonning biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha yangi milliy maqsadlari <https://gov.uz/oz/eco/news/view/14891>



Kunming-Monreal Global Biologik Xilma-xillik Ramkasi 2022 yilda qabul qilingan. Bu ramka 2030 yilgacha biologik xilma-xillikni saqlash va barqaror foydalanish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarni yo'naltiradi. Bu ramka CBDning 2011-2020 yillardagi Strategik Rejasini, yigirma uchta maqsadni o'z ichiga oladi. **Himoyalangan hududlar va tiklash dasturlari.** Bu dasturlar biologik xilma-xillikni saqlash uchun muhimdir. Himoyalangan hududlar orqali turlarni va ularning yashash muhitini himoya qilish mumkin. Tiklash dasturlari esa buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashga qaratilgan. **Turlarni ro'yxatga olish va tiklash rejalar:** Bu rejalar yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarni aniqlash va ularni saqlash uchun zarur choralarni ko'rishni o'z ichiga oladi. Shu va shu kabi xalqaro hujjatlar biologik xilma-xillikni taminlash orqali ekotizimlarning barqarorligini taminlashga xizmat qiladi.

Yovvoyi Tabiat Fondi (WWF)ning 2022 yilgi "Living Planet" hisobotiga ko'ra, yovvoyi hayvonlar populyatsiyasi so'nggi 50 yil ichida o'rtacha 69% ga kamaygan⁵. Iqlim o'zgarishi natijasida 2100 yilga kelib Yerning tabiiy yashash joylarining 23% gacha yo'qolishi mumkin⁶. O'zbekistonning umumiy biologik xilma-xilligi 27000 dan ortiq turni tashkil etadi. Mamlakatimizning o'simlik dunyosida yuksak yoki oliy o'simlik turlari alohida ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi hududida 4500 ga yaqin yuksak o'simlik turlari va 2000 dan ortiq zamburug' turlari uchraydi. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj kamyob va relik turlar ham mavjud bo'lib, ularning soni 300 dan oshadi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 314 turdagi o'simlik turi kiritilgan⁷.

O'zbekiston hududida har yili o'simlik va hayvonot turlarining yo'qolishi haqida aniq statistik ma'lumotlar mavjud emas. Biroq, global miqyosda biologik xilma-xillikning yo'qolishi jiddiy muammo bo'lib, har kuni 150 ga yaqin tur yo'qolishi mumkinligi taxmin qilinadi. O'zbekiston ham bu jarayondan mustasno emas, chunki mamlakatda ham ko'plab turlar yo'qolish xavfi ostida.

⁵ <https://www.weforum.org/agenda/2022/10/nature-loss-biodiversity-wwf/>

⁶ <https://www.weforum.org/agenda/2020/11/earth-natural-habitats-destroyed-biodiversity-loss/>

⁷ <https://uznature.uz/en/activity/biodiversity?number=441>



O‘zbek olimlari orasida ekolog olim A. M. Egamberdiev va huquqshunos Z. X. Tursunovlarning ishlari iqlim o‘zgarishi va biologik xilma-xillik muammolari bo‘yicha yetakchi manbalardandir. Ular O‘zbekistonning quruq hududlarida biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. A. M. Egamberdiev o‘z tadqiqotlarida iqlim o‘zgarishi natijasida yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan o‘simlik va hayvonot turlari haqida to‘liq ma’lumot beradi. Ushbu ilmiy ishlar ko‘proq nazariy asoslar yaratgan bo‘lsa-da, ularni amaliyotda tatbiq etishda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Ayniqsa, ekologik muhofaza bo‘yicha ilg‘or huquqiy mexanizmlarni amalga oshirishda xalqaro amaliyotga moslashish bo‘lishi mumkin. Bu tadqiqotlar faqat O‘zbekistonning quruq hududlariga yoki milliy qonunchilikka tegishli bo‘lganligi bois ularning tavsiyalari va xorijiy mamlakatlar amaliyotini amalda tadbiq etish murakkab jarayondir.

Bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha loyihalar O‘zbekistondagi turli xil ekotizimlarni, shu jumladanundagi cho‘llarni, orol dengizi havzasini, qirg‘oqlar bo‘ylaridagi hududlarni, suv va botqoq hududlarni hamda tog‘larni qamrab oldi, bunda asosiy e’tibor yo‘qolish arafasidagi turlarga qaratildi. globalekologik jamg‘arma ko‘magida qor qoplonini va uning o‘ljalarini o‘rganish maqsadida qor qoploninitadqiq qilish va kuzatish milliy dasturi shakllantirildi, shu bilan birga qor qoplonini saqlashbo‘yichamilliy dastur va harakatlar rejasi tez orada hukumatga tasdiqlanish uchun taqdimetiladi. garchi hukumatbioxilma-xillikni muhofaza qilish sohasida jiddiy natijalarga erishgan bo‘lsa-da, mamlakat uchuntabiyyresurslardan va ekotizimlardan mas’uliyatli foydalanish aholi sonining o‘sishi va urbanizasiya, jadal islohotlar davrida o‘ta muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. O‘zbekiston ekotizimlari iqlim o‘zgarishi oldida o‘ta zaifdirlar (bioxilma-xillikning qisqarishiga olib keluvchi cho‘llanish) Orol dengizining qurib borishi⁸.

Z. X. Tursunovning asarlari esa huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va xalqaro huquqiy me’yorlarni milliy qonunchilikka integratsiyalash muammolariga bag‘ishlangan.

⁸ Shuxrat o‘g‘li, O. A., & Noila, H. (2024). ATROF-MUHIT VA BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(1), 844-849.



Masalan, uning dissertatsiyasida biologik xilma-xillikni muhofaza qilishda davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatining rolga e'tibor qaratilgan.

Mavjud muammolarga zamonaviy texnologiyalar yordamida yechim berish kerak. Misol uchun Sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali. Ba'zi davlatlar Terra-I dan foydalanadi. Bu sun'iy intellekt dasturi real vaqt rejimida o'rmonlarning yo'qolishini kuzatadi. U sun'iy neyron tarmoqlari yordamida o'rmonlarning holatini tahlil qiladi va o'zgarishlarni aniqlaydi. U hattoki o'zimlik qoplamasidagi o'zgarishlarni sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va neyron tarmoqlar yordamida aniqlash mumkin. Mazkur tizim har 16 kunda yangilanib, har yangilanishda avvalgi ma'lumotlar bilan tahlil qiladi⁹. Dronlardan foydalanish bilan biz yovvoyi hayvonlar va ularning yashash joylarini erkin kuzatish, ularning yashash sharoitlarini tahlil qilish, hattoki inson yetib borishi qiyin bo'lgan cho'qqi qoyalarga ham yetib borish orqali ularning turmush tarzini o'rganish mumkin.

Yana bir usul hozirgi kunda foydalanilayotgan kamera tuzoqlari yovvoyi hayvonlarning harakatlarini kuzatish va ularning populyatsiyasini baholash uchun ishlatiladi. Misol uchun 2023-yil 19-noyabrda Qashqadaryodagi “Hisor” davlat qo'riqxonasiga o'rnatilgan videoqopqon orqali 4 ta qor qoplarni tasvirga olinib bu qo'riqxonaning 40 yillik tarixida birinchi marotaba yuz berdi. Bu usul arzon va samarali bo'lib, hatto hayvonlarni tunda ham kuzatish imkonini beradi¹⁰. Atrof-muhit, shuningdek bioxilma xillikka yetkazilgan zarar, shunga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalasini qayta ko'rib chiqish lozim. Ma'muriy javobgarliklar to'g'risida kodeksda Qizil kitobga kiritilgan hayvon turlariga mansub noyob yoki yo'q bo'lib ketish xavfida turgan hayvonlarni yo'q qilib yuborish fuqarolarga javobgarlik belgilangan. Lekin mazkur javobgarlik yetkazilishi mumkin bo'lgan zararga nomutanosis deb hisoblayman. Bundan tashqari atrof-muhitga zarar yetkazib o'z faoliyatini amalga oshiradigan korxonalarga

⁹ International Center for Tropical Agriculture (CIAT). (n.d.). *Terra-i Eye: Habitat Change*. CGIAR. Retrieved October 6, 2024, from <https://ccafs.cgiar.org/resources/tools/terra-i-eye-habitat-change>

¹⁰ Gazeta.uz. (2023, December 13). *Snow leopard*. Retrieved October 6, 2024, from <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/13/snow-leopard/>



ularning yetkazgan zarariga qo'shimcha tarzda faoliyati uchun alohida ekologik soliq tizimini ham ishlab chiqish lozim deb hisoblayman.

Xulosa qilib aytganda, global muammolar, iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarga yechim sifatida o'z tasirini o'tkazishi mumkin bo'lgan biologik xilma-xillikni taminlash nafaqat bir davlatning, malki butun dunyo mamlakatlari va aholisining majburiyati hisoblanib, bunday majburiyatni amalga oshirishda barcha birdek harakat qilishligi lozim. Afsuski, insoniyat tabiatga cheksiz resurslar banki sifatida murojaat qilishga odatlangan. Bunday iste'molchi yondashuv tabiiy resurslarning, ayniqsa, biologik xilma-xillikning tez qisqarishi va degradatsiyasiga olib keladi. Bundan tashqari, xususiy va davlat iqtisodiy manfaatlari, noto'g'ri siyosat va boshqaruv, atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati uchun etarli mablag'ning yo'qligi vaziyatning yomonlashishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan jamiyat, davlat va xususiy sektor tabiatga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishlari va yangi tabiatga mos keladigan xatti-harakatlar modellarini qabul qilishlari kerak.